

**TIL TADQIQIDA ZAMONAVIY YO‘NALISHLAR: KOGNITIV
TILSHUNOSLIK, PRAGMALINGVISTIKA, LINGVOKULTUROLOGIYA,
SOTSIOLINGVISTIKA, LINGVOPOETIKA, PSIXOLINGVISTIKA**

**DAVLAT TILI YANGI O‘ZBEKISTON UCHUN, YANGI HAYOT UCHUN
XIZMAT QILMOG‘I KERAK**

Sobirov Abdulhay Shukurovich

filologiya fanlari doktori, professor

Andijon davlat universiteti

***Annotatsiya:** Maqolada bugungi global dunyoda o‘zbek tilining tutgan o‘rni, uning davlat tili sifatida mamlakatimiz va jahondagi nufuzi, bu boradagi rejalar va bajarishimiz lozim bo‘lgan ishlar haqida so‘z yuritildi.*

***Kalit so‘zlar:** til, dunyo tillari, milliy tillar, ingliz tili, global dunyo, davlat tili, farmon, konsepsiya, vazifalar, ijro mexanizmi, lug‘at, so‘z boyligi, til sohiblari.*

***Аннотация:** В статье говорится о месте узбекского языка в современном глобальном мире, его престиже как государственного языка нашей страны и мира, планах и задачах, которые предстоит реализовать в этом направлении.*

***Ключевые слова:** язык, мировые языки, национальные языки, английский язык, глобальный мир, государственный язык, указ, понятие, задачи, исполнительный механизм, словарь, лексика, владельцы языка.*

***Annotation:** The article talks about the place of the Uzbek language in the modern global world, its prestige as the state language of our country and the world, plans and tasks to be implemented in this direction.*

***Key words:** language, world languages, national languages, English language, global world, state language, decree, concept, tasks, executive mechanism, dictionary, vocabulary, language owners.*

Bugun butun mamlakatimizda “Yangi O‘zbekiston uchun, yangi hayot uchun: tilda, fikrda, ishda birlik” shiori ostida keng ko‘lamda targ‘ibot-tashviqot ishlari ketmoqda. Mazkur jarayonda jamiyatning asosiy ko‘zgusi sanalgan tilning o‘rni juda katta ekanligi hech kimga sir emas. Hozirgi bosqichda o‘zbek tili millatimiz tafakkurining betakror ifodasi, Uchinchi Renessansning o‘ziga xos jarangdor ovozi sifatida namoyon bo‘lmoqda.

O‘zbek tiliga berilayotgan e‘tiborning kundan kun ortib borayotgani yaxshi, lekin masalaning ikkinchi tomoni ham bor. Bugungi global dunyo qonunlari shafqatsiz, u o‘z domiga taqdir oldida ojiz qolgan mamlakatlar va xalqlarni so‘zsiz tortib ketmoqda. Bu xavf dunyodagi barcha tillar boshiga qora soya solib turibdi.

Internet ma'lumotlariga ko'ra, YUNESKOning "Yo'qolish arafasida turgan dunyo tillarining atlası" ("Atlas of the World's Languages in Danger") da 2500 ta til, shundan Yevropada 50 ta, Tinch okeani hududida 2000 ta, Afrika qit'asida 250 ta tilning halokat yoqasida turganligi aytiladi. Asrimiz oxiriga borib, hozirda dunyoda mavjud bo'lgan tillarning yarmi butunlay yo'qolib ketishi taxmin qilinmoqda. Markaziy Osiyodagi oyrot (Qozog'iston), dungan (Qozog'iston, Qirg'iziston), truxman (Turkmaniston), paryo (Tojikiston, O'zbekiston), voxon, ishkoshim, sanglich, roshorv, shug'non, bartang, rushon, yazg'ulom, yag'nob tillari (Tojikiston) shular jumlasidan sanaladi.

Yuqoridagi atlasda yo'qolish xavf solib turgan dunyo tillari quyidagi mezonlar bo'yicha tasniflanadi.

1. Yo'qolib ketgan tillar. Hozirda so'zlashuvchilari qolmagan ubix, mansi, kappadok tillari shular jumlasidan.

2. Yo'qolib ketish arafasidagi tillar. Bu tilda faqat keksa avlod gaplashadi, yoshlar umuman bu tillarni bilmaydi. Masalan: livs, vod, oroks, manjur tillari.

3. Jiddiy xavf ostidagi tillar. Bu tillarda yosh avlod deyarli gaplashmay qo'ygan bo'ladi. Yukagir, ket, nivx, breton, kashibian kabi tillar.

4. Yo'qolib ketish xavfi ostidagi tillar: nenes, korel, komi, iri tillari.

5. Beqaror tillar. Bunday tillar hech qanday rasmiy yoki boshqa maqomlarga ega emas. Shu bois, ular potensial xavf ostidagi tillar sanaladi. Dolgan, chukotka, idish, bask kabi tillar shu guruhga mansub.

6. Rivojlangan tillar (yo'qolib ketish xavfi yo'q tillar) : ingliz, xitoy, fransuz, nemis, rus, ispan tillari [1].

E'tibor beradigan bo'lsak, jahon tillarining mavqeyi va nufuzini belgilashda ularning bugungi murakkab globallashuv jarayonlarida jamiyatda va xalqaro maydonda tutgan o'rnı mezon qilib olingan. "Hamma davrlarda qo'llanib kelinayotgan va avlodlar o'rtasida uzilish bo'lmagan tillar"ga "rivojlangan tillar yoki yo'qolib ketish xavfi yo'q tillar" deb baho berilgan. BMTning ishchi tili sanalgan ingliz, nemis, fransuz, arab, rus tillari mazkur guruhga kiritilgan.

Mutaxassislar asosan tillarning yo'qolib ketishini globallashuv jarayonlari va urbanizatsiya hodisasining kuchayishiga olib borib taqashmoqda. Bizningcha, buning bir qancha sabablari bor. Jumladan, xalqlar va millatlar o'rtasida bugungi kunda amalga oshirilayotgan aloqa-aralashuvlar va munosabatlarning ko'lamini oddiy aql bilan tasavvur qilib bo'lmay qoldi. Globallashuv jarayonlari shiddat bilan insoniyat hayotiga kirib borayotgan hozirgi pallada tildan maqsadli va unumli foydalanish masalasi barcha millatlar uchun kundan kunga hayotiy zaruratga aylanib bormoqda. O'zining ona tilisi taqdiri ustida jiddiy bosh qotirmayotgan xalqlarning kelajagi zabun bo'lishini va tili yo'qolgach, uning o'zi ham tanazzulga yuz tutishini hayotning o'zi ko'rsatib turibdi. Bugun dunyoni qayta egallashda kuch-qudrat,

qurol-yaroqdan ko‘ra muayyan g‘oyadan, ya‘ni til vositalaridan ustalik bilan foydalanish dunyo siyosatida tobora ustuvor ahamiyat kasb etib bormoqda. Dunyo tilshunolsigida “til imperializmi” degan tushuncha paydo bo‘lib qoldi.

O‘zbek tilini asrab qolish va butun boyligi, nafosati bilan kelajak avlodga qoldirish uchun quyidagi ishlarni zudlik bilan bajarish lozim deb o‘ylaymiz.

O‘zbek tilining mamlakatimiz ichida va xalqaro maydondagi nufuzini yuksaltirish bo‘yicha xalqaro talablarga to‘la javob beradigan huquqiy-me‘yoriy hujjatlar tizimini yaratish lozim. Bunga erishib bo‘lindi. Davlatimiz rahbari tomonidan 2019-yil 21-oktyabrdagi «O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF-5850-sonli, 2020-yil 20-oktyabrdagi «Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF-6084-sonli Farmonlari ushbu olamshumul vazifani to‘la-to‘kis bajarishga yo‘naltirilgani bilan ahamiyatlidir [2].

Keyingi Farmonga ilova qiligan “2020–2030-yillarda o‘zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish Konsepsiyasi”da bu borada amalga oshirishimiz lozim bo‘lgan barcha ishlar aniq va tiniq qilib belgilab qo‘yilgan.

“Davlat tilini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari”ga bag‘ishlangan 2-bobda “mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy hayotining barcha sohalarida davlat tili imkoniyatlaridan to‘liq va to‘g‘ri foydalanishga erishish; ta‘lim tashkilotlarida davlat tilini o‘qitish tizimini yanada takomillashtirish, uning ilm-fan tili sifatidagi nufuzini oshirish; davlat tilining sofligini saqlash, uni boyitib borish va aholining nutq madaniyatini oshirish; davlat tilining zamonaviy axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalariga faol integratsiyalashuvini ta‘minlash; davlat tilining xalqaro miqyosdagi o‘rni va nufuzini oshirish, bu borada xorijiy hamkorlik aloqalarini rivojlantirish; mamlakatimizda istiqomat qiladigan barcha millat va elatlar tillarini rivojlantirish maqsadida keng va teng imkoniyatlar hamda ularga davlat tilini o‘rganish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish” masalalariga alohida e‘tibor qaratilgan [3].

Ta‘kidlangan vazifalarni bajarishga birinchi galda biz – tilshunoslar mas‘ulmiz va bu ishda jamiyatning lokomotivi bo‘lishimiz talab etiladi.

O‘zbek tili bo‘yicha bilimlarni baholash tizimini takomillashtirish bo‘yicha olib borilayotgan ishlarni ham har jihatdan ma‘qullash kerak. Boisi, ingliz, rus, nemis tillarini xalqaro baholash mezonlari ishlab chiqilgan va u amaliyotda keng foydalaniladi.

Mamlakatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev 2023-yilning 22-dekabr kuni Respublika Ma‘naviyat va ma‘rifat kengashining kengaytirilgan selektor yig‘ilishida davlat tilini rivojlantirish, milliy sertifikatga ega bo‘lgan o‘zbek tili va adabiyoti fani o‘qituvchilariga yangi o‘quv yilidan boshlab 50 foiz ustama haq belgilash bo‘yicha tegishli topshiriqlar berdi.

Belgilangan vazifalar ichida “Ta’lim tashkilotlarida davlat tilini o’qitish tizimini yanada takomillashtirish, uning ilm-fan tili sifatidagi nufuzini oshirish”ga alohida ahamiyat qaratilgan. Jumladan, “ta’limning barcha bosqichlarida davlat tili o’qitilishi hamda o’zbek tili va adabiyotini yanada rivojlantirish borasidagi ilmiy, ilmiy-amaliy izlanishlar ko‘lamini kengaytirish; o’zbek tili o‘quv leksikografiya tarmog‘ini rivojlantirish, zamonaviy, yangi avlod o‘quv lug‘atlarini tuzish hamda ularning elektron shakllarini va sohalar bo‘yicha atamalar lug‘atini yaratish; oliy ta’lim muassasalarining filologiya ta’lim yo‘nalishlarida “Kompyuter lingvistikasi”, “Amaliy filologiya” yo‘nalishlarini tashkil qilish; o’zbek tili va adabiyotini o’qitishning zamonaviy metodikasini yaratish” masalalari kun tartibiga qo‘yilgan.

“O‘zbek tiliga oid barcha ilmiy, nazariy va amaliy ma’lumotlarni o‘zida jamlagan elektron ko‘rinishdagi o‘zbek tili milliy korpusini yaratish; o‘zbek tilini Internet jahon axborot tarmog‘ida ommalashtirish, unda munosib o‘rin egallashini ta’minlash, dasturiy mahsulotlarning o‘zbekcha ilovalarini yaratish, o‘zbek tilini o‘rgatuvchi kompyuter dasturlarini keng miqyosda amaliyotga tatbiq qilish; o‘zbek tilidagi matnlar tahririga mo‘ljallangan kompyuter dasturlarini yaratish; o‘zbek tilidan jahonning yetakchi xorijiy tillariga va xorijiy tillardan o‘zbek tiliga tarjima qiluvchi kompyuter dasturini yaratish; davlat tilida yaratilgan dasturiy ta’minotlarning yagona sertifikatlash va standartlashtirish xizmatini joriy etish; xorijda o‘zbek tilining xalqaro nufuzi, jozibadorligi va imkoniyatlari haqida ilmiy anjumanlar, davra suhbatlari, muloqot va suhbatlar tashkil etish va ommaviy axborot vositalarida keng yoritish”ga ham alohida e’tibor qaratilgan [4].

Bu o‘rinda davlat tili haqida “Qonun talablarini to‘la bajaryapmizmi?” degan savolning paydo bo‘lishi tabiiy. Bizningcha, oldinda qiladigan ishlarimiz juda ko‘p.

Birinchi galda aholi o‘rtasida davlat tilini targ‘ib qilish bo‘yicha keng ko‘lamda targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishimiz, millatdoshlarimizda milliy g‘urur, o‘z tilidan faxrlanish, unga mehr-muhabbat bilan qarash tuyg‘ularini rivojlantirishimiz zarur. Afsuski, ko‘pchilik insonlarda bunday tuyg‘ular qotib qolgan.

To‘g‘risini aytganda, til masalasi faqat tilshunoslarning ishi emas. O‘zini “ziyoliman”, “jamiyatda o‘rnim bor” deb yurgan har bir millatdoshimizning, tildoshimizning zimmasidagi sharaflari va ayni chog‘da mas’uliyatli ishdir bu. Dunyoda yetakchi tillarga aylangan millatlar misolida qarab ko‘ring. Ular matematikmi, fizikmi, kimyogarmi, muhandismi, doktormi, bundan qat’i nazar, barchasi bir musht bo‘lib, jips bo‘lib, o‘z tili, o‘z millati taqdiri ustida jiddiy bosh qotirishmoqda, hamkorlik asosida lug‘atlar, ma’lumotnomalar, qomuslar va h.k. larni chop etishmoqda. Til masalasida eng kichik muammogacha barchasi birgalikda harakat qilib, yechimini topishmoqda. Demak, biz ularning tajribasini o‘rganishimiz,

ona tilini rivojlantirishda ingliz, rus, nemis va boshqa yetakchi tillardan amalga oshirilayotgan ishlardan o‘rnak olishimiz zarur ekan.

Bu tillarga mahliyo bo‘lib buyuk vatandoshlarimizning tilshunoslik sohasidagi fikr-mulohazalarini bir chetga surib qo‘yishdan ham foyda yo‘q. Mahmud Koshg‘ariy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Alisher Navoiy, Mahmud Zamaxshariy, Abdurauf Fitrat singari ulug‘larning lingvistik qarashlari biz uchun dasturulamal vazifasini o‘tashi aniq.

Birgina misolni keltiraman. Rus tilida “Словарь умных слов” (“Aqlli so‘zlar lug‘ati” mavjud. Bu lug‘atga faqat rus tilidagi emas, bugungi ilm-fan, texnika yutuqlarini o‘zida yaqqol aks ettirayotgan barcha tillardan o‘zlashgan leksik birliklar kiritilgan.

Rigidnost – qattqlik, o‘jarlik, bo‘ysunmaslik; ergofobiya – mehnat qilishdan qo‘rqish, ishdan qochish; plyuviofil – yomg‘irli havodan zavq oluvchi shaxs; rigorizm – me‘yor va qoidalarga qat‘iy amal qilish kabi leksik birliklarni bunga misol qilib olishimiz mumkin.

Bizda esa xorijiy leksemalar ortidan quvib, o‘z tilimizda ta‘lim, maorif, tarbiya, ma‘rifat singari leksemalar turganida “Makro Educacion”, “Comfort Educacion”, “Smart Educacion”, “Future Educacion”, “Profi smart Educacion”, “Ferghana smart Educacion”, “Korean Educacion Center” kabi nomlardan foydalanish kuchli. “Ma‘rifvat yog‘dusi”, “Ilm gavhari”, “Bilimlar makoni” ko‘rinishidagi ta‘lim berish maskanlari bor-ku?!

Tan olish kerak, hozirda dunyo bo‘ylab tuzilayotgan savdo bitimlarining 90 foizi, axborotlar oqimining 80 foizi ingliz tilida kechmoqda. Bu degani o‘zbek tiliga o‘zlashmagan hotel, hostel, kids, hause, open, closed kabi leksik birliklarni har qadamda qo‘llash degani emas! (?)

Tilmizda mavjud bo‘lmagan karting – bank kartalari asosidagi firibgarlik, fishing – shaxsiy ma‘lumotlarni o‘g‘irlash, zerokoder – til bilimisiz dasturlash bilan shug‘ullanuvchi mutaxassis, trendvotcher – siyosat, iqtisodiyot, ijtimoiy hayotning yangi yo‘nalishlari bilan shug‘ullanuvchi xodim singari so‘zlarni to‘g‘ridan to‘g‘ri qabul qilishimiz; dasturchi, dasturlash, kibermakon, kiberjinoiyat, kiberhujum, virtual do‘st, virtual olam, verbal tafakkur, verbal metod, verbal intellekt; smartfon, smart mahalla, smart-soat kabi leksemalarni kalkalab olishimiz o‘rinlidir, buni zamonning o‘zi taqozo etmoqda. Lekin, tilga bo‘lgan munosabatda xolis turib, o‘zbek tiliga kirib kelayotgan yangi so‘zlarga jiddiy e‘tibor qaratib, masalani tezkorlik bilan hal etmasak, ertaga kech bo‘lishi mumkin.

Ijtimoiy tarmoqlarda o‘zlashma so‘zlarining 395 tilda ishlangan bazasi (The World Loanword Database – WOLD) ham mavjud, dunyo tillaridan 369 tasi so‘z beruvchi til (donor til), 41 tasi so‘z o‘zlashtiruvchi til, 15 tasi esa har ikkala guruhga ham kiruvchi til sifatida ko‘rsatilgan [5].

O‘zbek tili faqat so‘z o‘zlashtiruvchi til bo‘lib qolmasligi kerak. Bu kabi masalalar ustida tadqiqotlar olib borish kelajakda tilshunoslikning dolzarb va istiqbolli yo‘nalishlaridan birini tashkil etishi aniq.

Yana bir mulohaza: golaballashuv internet vositasida tilimizga minglab yangi atamalarning kirib kelishiga sababchi bo‘lmoqda. Ular asosan iqtisodiyot, siyosat, ilm-fan, texnika sohalariga tegishli leksik birliklar sanaladi.

Ab‘yuz – internet orqali biron kimsaning sha‘niga dog‘ tushirish; bodipozitiv – tashqi ko‘rinish asosida qabul qilish; gazlayting – ma‘lumotni buzishga, insonni chalg‘itishga qaratilgan, ruhiy zo‘ravonlikning bir turi; tulpa – o‘z-o‘zini gipnoz qilish mahsuloti; xayoliy do‘st; xarasment – psixologik zo‘ravonlik va shu kabi leksemalar bunga misol bo‘la oladi. Bu o‘rinda soha vakillari bilan tilshunoslarning mushtarakligi, yakdilligi kerak bo‘ladi. Hamma o‘z holida ish ko‘rsa, bundan ona tilimiz ozor chekadi.

Shu bois, butun millat, barcha mutaxassislar bir bo‘lib, jipslik bilan ona tilimiz taqdiri ustida bosh qotirsak, birgalikda harakat qilsak, bundan faqat yutamiz va kelajak avlod oldida o‘z ona tillariga hurmat bilan qaragan, uning taraqqiyoti uchun zamin hozirlagan avlod sifatida tarixda qolamiz.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, o‘zbek tili dunyodagi eng boy va teran tarixiy ildizlarga ega bo‘lgan qadim tillardan biridir. O‘zbek tili davlat tili sifatida yurtimizdagi tabarruk va muqaddas, mo‘jizaviy buloqlardek toza va musaffo, iste‘molga doim yaroqli bo‘lishi shart. Uning ichki va tashqi imkoniyatlari cheksiz va mislsizdir. Undan o‘rinli foydalanish, tilning sofliqi, tabiiyligi uchun kurashish, davlat tili me‘yorlariga har on, har soniyada to‘liq rioya qilish, boshqalardan ham buni talab etish, ona tilining musaffoligini va tarovatini saqlab qolish barchamizning bizni oq yuvib, oq tarab o‘stirgan, voyaga yetkazgan ona yurt, ONA TILI oldidagi sharaflari va ayni chog‘da muqaddas burchimizdir.

Adabiyotlar:

1. <https://science.fandom.com/ru/wiki>.
2. Mirziyoyev Sh. M. Milliy o‘zligimiz va mustaqil davlatchiligimiz timsoli // O‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilganining o‘ttiz yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutq // Xalq so‘zi. – Toshkent, 2019-yil 22-oktyabr. – № 218. –1-4 b. ; O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 2020-yil 20-oktyabrdagi PF-6084son Farmoni // Xalq so‘zi, 2019-yil 20-takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 2020-yil 20-oktyabrdagi PF-6084son Farmoni // Xalq so‘zi, 2019-yil 20-oktyabr. – № 222-223.
3. lex. uz.
4. lex. uz.
5. <https://wold.clld.org>.